



## BADIY ASARLARDA MODAL SO`ZLARNING MA`NO KUCHAYTIRISH VAZIFASI

*Rahmatullayeva Nozbuvi Jo`rabeq qizi  
Ishtixon tumani 36-maktab o`quvchisi*

O`zbek adabiyoti buyuk tarixga ega. Bu tarixni o`rganish uchun yillar kamlik qiladi. Adabiyotimizni shakllantirishda, uni bosqicha- bosqich rivojlantirishda juda ko`p ijodkorlarning mehnati singgan. Qanchadan- qancha fidokorlar xalq ongini ostirish, madaniyatimizni rivojlantirish uchun jonlarini qurban qildilar. Masalan , Jadidchilarimizni olaylik, ular xuddi qishda ochilgan chechak singari kam umr ko`rgan bo`lsalarda, G`ofur G`ulom aytganidek “ Yarim soat ichida tug`ilib, o`lib” asrlarga tatiydigani ijodiy me`ros qoldira oldilar.

Bugun bizning faxrlana oladigan adabiy me`rosimiz bor. Biz bu qimmatli xazinani asrab- avaylamog`imiz lozim.. Buning uchun ularning ijodini chuqurroq o`rganishimiz, ularning ishlariga munosib avlod bo`lmog`imiz darkor.

Ana shunday ijodkorlar orasida o`tkir qalam sohibi, iste`dodli ijodkor O`tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asariga nazar tashlamoqchimiz. Bu asarda urush davridagi qiyinchiliklar, insonlar hayotidagi ziddiyatli vaziyatlar xususida so`z boradi. Biz shu asardagi ta`sirchanlikni sezilarli darajada oshirgan modal so`zlar haqida to`xtalmoqchimiz.

Asarda modal so`zlardan juda ko`p o`rinda foydalilanligan. Aynan ularning ishtiroki gaplarga qanday ta`sir etayotganini ko`rib chiqamiz:

*Chamasi, Fotima kelin ham uning to`satdan urushga jo`naganiga chidolmadi.*

*Xayriyat, kun botmasdan kartoshkani terib bo`ldik.*

*Xullas, erining oldiga bir lagan qirmoch olib qo`ydi.*

Modal so`zlar gapga qo`shilganda o`quvchiga o`zgacha ruhiyat bag`ishlaydi; fikrni yanada yoritib beradi, muallifning voqealarga achinish, guman tasdiq va boshqa tushunchalarini ifodalaydi. Biz hozirgi gaplarda modal so`zlar qanday ma`no anglatib kelganini aytib o`tamiz.

Masalan, birinchi gapda chamasi so`zi gapga guman, taxmin ma`nolarini yuklagan. Ikkinci gapda qo`llangan xayriyat so`zi quvonish manosini gapga kirityapti.

Uchinchi gapda qatnashgan xullas modal so`zi ayttilmoqchi bo`lgan fikrni yakun topganligini anglatyapti. Ya`ni fikrning yakunlanganini anglatmoqda.



Umuman olganda, bu asarda modal so`zlar juda ko`p o`rinda ishlatalilgan. Tahlilni davom ettiramiz:

***Demak, tog`amni kuzatishga u ham kelibdi.***

Bu gapda **xulosalash ma`nosidagi demak** modal so`zi ishtirok etgan va gapning umumiy mazmunini tahlil qilishga xizmat qilyapti. Agar bu gapda modal so`z ishlatilmaganда xulosalash mazmuni bo`lmagan oddiy darak gapga aylanib qolgan bo`lar edi.

***Umuman, sizdaqa brigadirdan voz kechish masalasini o`ylab ko`ramiz.***

Bu gapda ishlatalilgan **umuman** modal so`zi ham xulosalash ma`nosida keladi. Ammo **demak** so`ziga qaraganda ma`noni kuchaytirishga ham xizmat qilmoqda.

***Avvallari maosh olgan kunim, albatta, eski gap qo`zg`alar edi.***

Yuqoridagi gapda ishlatalilgan **albatta** modal so`zi **ishonch munosabatini** bildirib kelmoqda. Gapning modal so`z ishlatilmagan holatida *eski gapning qo`zg`alish yoki qo`zg`almasligi haqida fikr anglashilmaydi*. Ammo **albatta ishlataligandan** keyin “*eski gapning qo`zg`alishini*” aniq qilib qo`yadi.

“Ikki eshik orasi” asarida modal so`zlarning ishlatalishi asarning yanada ta`sirchanroq bo`lishini taminlamoqda. Yuqorida takidlaganimizdek, bu modal so`zlar fikrni yanada ochiqroq ko`rsatishga yordam beradi.. Modal so`zlar qatnashgan asar o`quvchiga estetik zavq bag`ishlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”
2. B.To`xliyev Adabiyot nazariyasi
3. B.To`xliyev Hozirgi o`zbek adabiy tili